

## SAMARQAND VILOYATINING SUG'ORILADIGAN BIOTSENOZLARIDA QORAMOLLARNING PARENXIMATOZ ORGANLARINING ASOSIY GELMINTOZLARI

**Nurmamadov T.E.** – talaba

**Urokov K.X.** – ilmiy rahbar- v.f.f.d. PhD

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

***Annotatsiya:** Maqolada Samarqand viloyatining sug'oriladigan biotsenozlarida kasallikdan o'lgan, majburiy yoki go'sht maxsuloti uchun so'yilgan 182 bosh qoramol to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli bilan hamda 1594 bosh qoramol tirikligida gelmintokoprologik usullar bilan tekshirilib qoramollarning asosiy parenximatoz organlarining epizootologiyasi o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar.** Parenximatoz, gelmintologik, gelmintokoprologik, trematodoz.*

**Kirish.** Respublikamizda keyingi yillarda har bir tur qishloq xo'jalik hayvonlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmoqda. Bunda qoramol go'sht mahsulotlarini xavfsizligi bo'yicha sifatli hamda ekologik toza mahsulotlarni yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli bioekologik sharoitda gelmintozlarni tarqalishini, kasallikni oldini olishda zamonaviy davolash va proflyaktika tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Ko'pchilik ikki xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchi trematodalar bilan definitiv xo'jayinlarning yil bo'yi zararlanishi mumkinligi ularning tabiiy o'choqlarini kuchayishiga, arealining kengayishiga olib keladi. Uch, to'rt xo'jayinli va sistogoniya taraqqiyot bosqichiga ega bo'lmagan ikki xo'jayinli trematodalar bilan definitiv xo'jayinlarning zararlanishini ikkinchi va uchinchi oraliq (qo'shimcha) xo'jayinlar hamda mollyuskalar faollik davrida kechishi ular chaqiradigan kasalliklarning epizootologiyasida muhim ahamiyatga ega. Definitiv xujayinlarda trematodalarning bir necha yilgacha yashashi, ularga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy preparatlarning to'liq samara bermasligi, oraliq xo'jayinlarda esa ularning lichinkalarining qishlashi ularga qarshi kurashishning qanchalik murakkab ekanligini ko'rsatadi. Kasallik qo'zg'atuvchilarining birinchi oraliq xo'jayinini noqulay ekologik omillar ta'sirida u yoki bu hududda yo'qolib ketmaganicha, agarda trematodozlarga qarshi o'tkaziladigan tadbirlar sustkashlik bilan amalga oshirilsa, kasallik o'choqlari yanada kuchayib boradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Parenximatoz organ gelmintozlarining qo'zgatuvchilari parazitlik yuli bilan hayot kechiruvchi turli gelmintlar - trematodalar, sestodlar va nematodalar bo'lib hisoblanadi. Ular o'z ho'jayinlarida parazitlik qilish davrida ularning tegishli organlarini jarohatlaydi, o'zlarining yaroqsiz mahsulotlari bilan organizmni zaharlaydi, hamda har xil patogenli mikroblar uchun yo'l ochib beradi, xo'jayinning boshqa kasalliklarga bo'lgan rezistentligini pasaytiradi. Jumladan ular qoramollar organizmining tabiiy immunobiologik himoya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib ularni turli xil yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga va ularning og'ir kechishiga olib keladi. Natijada u yoki bu gelmintozlar oqibatida

talaygina hayvonlar nobud bo'ladi, tirik qolganlarida esa ulardan olinadigan mahsulotlarning miqdori va sifati pasayadi.

**Tadqiqotlarning maqsadi.** Qoramollarning parenximatoz organlarining asosiy gelmintozlarining epizootologiyasini, qo'zg'atuvchilarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish va ularga qarshi kurash choralarini takomillashtirish.

**Tadqiqotlarning bajarish joyi, usullari va hajmi.** Tadqiqotlar 2023-2024 yillar davomida Samarqand viloyatining sug'oriladigan biotsenozlarida o'tkazildi. Uning uchun kasallikdan o'lgan, majburiy yoki go'sht maxsuloti uchun so'yilgan 182 bosh qoramollarning parenximatoz organlari (jigar, o'pkalari, buyrak, taloq va ichak tutqichlari) to'liq gelmintologik yorish yo'li bilan va yaylov sharoitida saqlangan 1594 bosh har-xil yoshdagi qoramollarning tezak namunalari gelmintokoprologik usullar bilan tekshirildi. Shuningdek tadqiqotlarda parazitlarning bioekologik xususiyatlarini o'rganishga ham e'tibor qaratildi.

**Tadqiqotlarning natijalari.** Tadqiqotlarimizda to'liq gelmintologik yorish yo'li bilan tekshirilgan 182 bosh qoramollarning 123 boshini yoki 67,5 foizini fassiolyozga chalinganligi aniqlandi. Ularning o'rtacha invaziya intensivligi 75,2 nusxani tashkil etdi. Shundan 54 boshini 29,6 foizini fassiolyozning yuqori patogenli turi *Facsiola gigantica* bilan, 47 boshini yoki 25,8 foizini *Facsiola hepatica* bilan, 22 boshida *F.hepatica*, *F.gigantica* bilan aralash holda, 138 bosh yoki 75,8 foizi *Dicrocoelium lanceatum* bilan, shundan 108 bosh qoramollarda 87,8 foiz *Dicrocoelium lanceatum*, *F.hepatica* va *F.gigantica* ning aralash shakli, 30 bosh qoramolda 24,3 foiz *D.dendriticum* toza holda, 34 bosh qoramolni 27,6 foizini *Echinococcus granulosus* (larva) bilan zararlanganligini aniqladik.

Tekshirilgan barcha qoramollarning jigarida 27 nusxadan 6758 nusxagacha fassiolyoz va dikrotselioz qo'zg'atuvchilari topildi. Ular bilan zararlangan barcha qoramollarda jami bo'lib 139924 nusxagacha trematodalarning parazitlik qilishini, o'rtacha har bir qoramol boshiga 1013 nusxadan fassiola va dikrotseliylarning to'g'ri kelishini aniqladik.

*F.gigantica* bilan zararlangan 54 bosh qoramolning jigar to'qimalari va o't yo'llarida 6 nusxadan 288 nusxagacha yoki jami 5816 nusxa parazit topildi. Uning o'rtacha invaziya intensivligi 76,5 nusxaga to'g'ri keldi. Fassiolyozning ikkinchi qo'zg'atuvchisi *F.hepatica* bilan 47 bosh qoramol zararlangan bo'lib, har bir qoramolning jigar to'qimalari va o't yo'llarida 17 nusxadan 435 nusxagacha, jami 3440 nusxa parazit topildi. Shunga ko'ra har bir qoramol jigariga 49,8 nusxadan parazit to'g'ri keldi. *F.hepatica* va *F.gigantica* ning aralash shakli bilan 22 bosh qoramol chalingan va u 12,0 foizni tashkil qiladi. Fassiolyozning xar ikki turi bilan zararlangan qoramollarda jami bo'lib 1914 nusxa parazit topilib u har bir qoramol boshiga 87 nusxagacha, shundan 1213 nusxasi 63,3 foiz *F.gigantica*, 701 nusxa 36,6 foizni *F.hepatica* tashkil etdi. Har ikkala tur fassiolalarning miqdori 11170 nusxaga teng bo'lib, ularning 62,9 foizini *F.gigantica*, 37,0 foizini *F.hepatica* tashkil qildi. Ushbu tadqiqotlarimizga ko'ra Samarqand viloyatining sug'oriladigan biotsenozlarida fassiolyozning asosiy qo'zg'atuvchisini *F.gigantica* tashkil qilayotganligini ko'rsatadi.

Dikrotselioz qo'zg'atuvchisi *D.dendriticum* tekshirilgan qoramollarning 138 boshi 75,8 foizi zararlangan bo'lib, har bir zararlangan qoramol jigarining o't yo'llari va o't xaltasida 78 nusxadan 6758 nusxagacha bo'lib, jami parazitlar soni 128754 nusxani tashkil qildi, yoki har bir qoramol boshiga o'rtacha 933 nusxadan parazit to'g'ri keldi. *D.dendriticum* trematodasi fassiolyoz qo'zg'atuvchilariga nisbatan ancha mayda parazit bo'lib, u jigar to'qimalarida uchramaydi va faqat jigar o't yo'llari, qisman o't xaltada parazitlik qiladi. Shunday bo'lsada u aralash fassiolyozning murakkab kechishiga sababchi bo'la oladi. Dikrotselioz qo'zg'atuvchisi esa aralash trematodoz holida 108 bosh qoramolda topildi. Shundan 39 boshi 21,4 foiz *F.hepatica* bilan, jami fassiolar 1896 nusxa, invaziyaning intensivligi 48 nusxani, *D.dendriticum* 34271 nusxa, invaziyaning intensivligi 797 nusxa parazitni tashkil qildi. *D.dendriticum*, *F.gigantica* bilan 43 bosh 23,6 foiz qoramolda uchratildi. Shundan 3398 nusxa, invaziya intensivlik o'rtacha 79 nusxani *F.gigantica*, 34271 nusxa, invaziya intensivlik 797 nusxani *F.hepatica* tashkil qildi. 26 bosh 14,2 foiz qoramolda *D.dendriticum* bilan *F.hepatica* va *F.gigantica* aralash shakli uchratildi. Topilgan fassiolar jami 1710 nusxa, invaziyaning intensivligi 65,7 nusxani, *D.dendriticum* jami 35561 nusxani, invaziya intensivligi 827 nusxani tashkil etdi. Shunday qilib barcha u yoki bu trematodozga chalingan qoramollarning jigarida 139924 nusxa fassiolar va dikrotselium topilgan bo'lsa, ularning 11170 nusxasi (7,9 foiz) fassiolyoz qo'zg'atuvchilari, 128754 nusxasini (92,0 foiz) dikrotselioz qo'zg'atuvchisi tashkil qiladi. Har bir tur trematoda bo'yicha tahlil qilinganda o'rganilgan parazitlarning 93,2 foizini *D.dendriticum*, 4,2 foizini *F.gigantica* va 2,4 foizini *F.hepatica* tashkil qiladi.

Bizlarning olib borgan tadqiqotlarimiz yana shuni ko'rsatadiki, 34 bosh exinokokkozga chalingan qoramollarning jigarida 1- 92 nusxagacha, jami bo'lib 475 nusxa turli hajmdagi (yong'oq donasidan to tuxum hajmidek) exinokokk pufaklari topildi. Exinokokkozga chalingan 18 bosh qoramolning yoki 14,6 foizida fassiolyozning aralash shakli uchradi. Jami topilgan fassiolar soni 816 nusxani tashkil e'tib, o'rtacha invaziya intensivlik 45,3 nusxaga, exinokokk pufaklar soni esa 3 tadan 48 nusxagacha topilib, jami 215 nusxani, o'rtacha xar bir kasallangan qoramol boshiga 45,3 nusxaga to'g'ri keldi.

6 bosh qoramol exinokokkoz bilan aralash fassiolyoz va dikrotseliozga chalingan bo'lib, ularning jigar kapsulasi va parenximasida 18 nusxadan 53 nusxagacha jami 87 nusxa yong'oq donasidan to tuxum xajmidek 215 nusxa exinokokk pufaklari topilib, exinokokkning invaziya intensivligi o'rtacha 12 nusxani tashkil qildi. Ushbu 6 bosh qoramolning jigaridan jami bo'lib 5254 nusxa aralash trematodalar ajratib olindi. Ularning 256 nusxasi (4,8 foiz) fassiolaning aralash shakliga to'g'ri kelib, ularning invaziya intensivligi o'rtacha 42,6 parazitga to'g'ri keldi. Shuningdek ushbu qoramollardan 4998 nusxa (95,1 foiz) *D.dendriticum* ajratib olindi. Ushbu parazitning invaziya intensivligi har bir qoramol boshiga 833 nusxadan to'g'ri keldi.

10 bosh qoramolda exinokokkoz toza xolda 1 tadan 93 nusxagacha, jami 173 nusxa *Echinococcus granulosus (larva)* topildi. Exinokokkozning invaziya intensivligi o'rtacha 17,3 nusxani tashkil qildi.

Gelmintologik yorib ko'rilgan 182 bosh qoramolning 27 boshi yoki 14,8 foizining o'pkalarida jami 156 nusxa *Echinococcus granulosus* (larva) bilan zararlanganligi. Ularning 19 boshining 10,4 foizida aralash jigar va o'pkalarida jami 315 nusxa, shundan 222 nusxa jigarda invaziya intensivlik 11,6 nusxa, 93 nusxasi esa o'pkalarda invaziya intensivlik 4,8 nusxani tashkil qildi. 8 bosh qoramolda 4,4 foiz faqat o'pkalarida jami 63 nusxa exinokokk pufaklari, invaziya intensivlik 7,8 nusxani tashkil etdi. Topilgan barcha exinokokkoz pufaklari bir xil hajmda yong'oq donasidan to tuxum xajmidek.

Gelmintokoprologik usul bilan tekshirilgan 1594 bosh xar hil yoshdagi qoramollarni ketma ket yuvish usuli bilan 5 gr. atrofidagi tezak namunalari tekshirilganda ulardan 1300 bosh (81,5 foiz) qoramollarning tezak namunalari fassiola va dikrotseliylarning aralash uchrashi, shundan 257 bosh qoramollarning (19,7 foiz) tezak namunalari *F.gigantica* ning *D.dendriticum* tuxumlari bilan birga, *F.hepatica* 168 bosh qoramolda (12,9 foiz) *D.dendriticum* ning tuxumlari bilan birga uchradi. *D.dendriticum* tuxumlari tekshirilgan qoramollarning 1446 boshida (90,7 foiz) qayd etildi.

### **Xulosa.**

1. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra Samarqand viloyatining sug'oriladigan biotsenozlarida qoramollarning asosiy parenximatov organlari gelmintozlariga fassiolyoz, dikrotselioz, exinokokkoz kiradi.

2. Tekshirilgan qoramollarning u yoki bu gelmintozlar bilan zararlanishi *F.hepatica*, *F.gigantica* 67,5 foiz; *D.dendriticum* 75,8 foiz *Echinococcus granulosus* (larva) 27,6 foizni tashkil etdi.

3. Bugungi kunda Samarqand viloyatining sug'oriladigan biotsenozlari qoramollarning parenximatov organlari gelmintozlari uchun o'ta nosog'lom xudud hisoblanib, gelmintozlarga qarshi kurashish choralari rejali ravishda takomillshtirishni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Салимов Б.С., Даминов А.С., Уроков К.Х. Қишлоқ хўжалик ҳайвонлари ва паррандалар трематодалари./Монография// Самарқанд, 2016. 7-112 б.

2. Уроков К.Х., Даминов А.С., Yunusov X.B. Qoramollar gelmintozlari. /Монография // Самарқанд, 2024. 4 б.

3. Urokov K.X., Daminov A.S., Samarqand viloyatining turli bioekologik xududlaridagi qoramollar fassiolyozining epizootologik monitoringi.// "Veterinariya va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari" respublika ilmiy anjumani. Samarqand.-2021, b. 181-185.

4. Urokov K.X., Daminov A.S., Yunusov X.B., Trematodoz qo'zg'atuvchilarining bioekologik xususiyatlar.// Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya. Toshkent. -2024, B. 4-10.

5. Urokov K.X., Daminov A.S., Yunusov X.B., Trematodoz qo'zg'atuvchilarining bioekologik xususiyatlar.// Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya. Toshkent. -2024, B. 4-10

6. Urokov K.X., Taylakova M.Sh., Daminov A.S., The role of mollusks in the epizootic process of helminthoses. // International Journal of Education, Social Science & Humanities.-Volume-11|Issue3| 2023 P. 650-659

7. Urokov K.X., Taylakova M.Sh., Daminov A.S., Study of drugs' anthelmintic efficacy in animal trematodoses. // Intent Research Scientific Journal-(IRSJ). - Volume 2, Issue 3, March -2023, P. 99-110.

8. Urokov K.X., Taylakova M.Sh., Daminov A.S., Epizootic analysis of the prevalence of trematodoses. // American Journal of Pedagogical and Educational Research. -ISSN (E): 2832-9791, 2023. P. 56-65.